

## SOMONIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI HAQIDA MULOHAZALAR

**Nabiyev Muxammadali**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti,  
Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10775165>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada milodiy IX-X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, shuningdek, Arab xalifaligining zaiflashuvi natijasida mustaqil davlat tuzishga yuzaga kelgan tarixiy sharoit o'rganiladi. Maqolada Somoniylar davlati – uning tashkil topishi, hukmdorlari, davlat boshqaruvi haqida ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga Somoniylar tomonidan olib borilgan tashqi siyosat tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Arab xalifaligi, Movarounnahr, Xuroson, Buxoro, Samarqand, Ahmad, Nasr, Ismoil, devonxona, dirham.

### CONSIDERATIONS ON THE ORGANIZATION OF THE SOMONI STATE

**Abstract.** In this article, the situation that arose as a result of the creation of an independent state as a result of the aggravation of the political situation in Movarounnahr and Khorasan in the 9th-10th centuries AD, as well as the weakening of the Arab caliphate is studied. The article provides information about the Somani state - its establishment, rulers, state administration. At the same time, the foreign policy conducted by the Somonites is analyzed.

**Key words:** Arab caliphate, Movarounnahr, Khurasan, Bukhara, Samarkand, Ahmed, Nasr, Ismail, devankhana, dirham.

### СООБРАЖЕНИЯ ПО ОРГАНИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВА СОМОНИ

**Аннотация.** В статье рассматриваются исторические условия создания независимого государства в результате обострения политической ситуации в Моваруннахре и Хорасане в IX-X веках нашей эры, а также ослабления Арабского халифата. В статье представлены сведения о соманском государстве - его создании, правителях, государственном управлении. При этом анализируется внешняя политика, проводимая сомонитами.

**Ключевые слова:** Арабский халифат, Моваруннахр, Хорасан, Бухара, Самарканд, Ахмед, Наср, Исмаил, деванхана, дирхам.

### KIRISH

Arab xalifaligi qo'l ostida bo'lgan Movarounnahr va Xurosondagi doimiy xalq qo'zg'olonlari markaziy hokimiyatning zaiflashuviga, bu yerdagi nazoratning arab noiblari qo'lidan chiqib ketishiga, mahalliy zodagonlarning asta-sekinlik bilan boshqaruv ishlariga jalb qilinishiga olib keldi. Ana shunday bir vaziyatda Somoniylar sulolasi vakillari tarix sahnasiga chiqdi. Arab xalifaligidagi taxt uchun kurashda Somoniylarning ishtiroki ularga xalifa tomonidan ma'lum imtiyozlarning berilishi, viloyatlar boshqaruvining topshirilishi, Tohiriylar orqali xalifalik hazinasiga soliq to'lab turishi bilan tugaydi. Bu vaqtda Movrounnahr va Xuroson xalifalikka nomigagina bo'ysunib, amalda mustaqil bo'lib oladilar.

### ASOSIY QISM

Milodiy 809-yilda Xalifa Horun ar-Rashid vafotidan so'ng, Arab xalifaligida taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Dastlab taxtga xalifaning katta o'g'li Amin o'tkaziladi. Ammo, Horun ar-Rashidning kichik o'g'li Ma'mun (Ma'mun laqabi, asl ismi Abdulla) ham taxt uchun da'vogar hisoblanardi. Shu sababli 811-yildan aka-ukalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash shiddatli tus oldi. Hirotidagi Bo'shang shahri hokimi bo'lgan Tohir ibn Husayn taxt uchun kurashda Ma'munni qo'llab-quvvatlaydi va uning qo'shinlariga boshchilik qiladi. Natijada, 813-yilda xalifalik taxti egallanib Ma'mun hukmronlik (813-833) davri boshlandi. Tohir ibn Husayn xalifa oldidagi xizmatlari uchun 815-yilda xalifalik qo'shinlari bosh qo'mondoni etib tayinlandi. 821-yilda Ma'mun Tohir ibn Husaynni Xuroson viloyatiga noib etib tayinlaydi. Viloyat markazi sifatida Nishopur shahri tanlanadi. U Xuroson va O'rta Osiyo viloyatlarini (Tabariston, Ray, Jurjon, Kirmon, Seyiston, Xuroson, Movarounnahr janubi) boshqaradi.<sup>1</sup> Xalifa tomonidan bunday katta ishonch bildirilishining o'zi ham Tohir ibn Husaynning davlat boshqaruvida kuchli siyosiy va harbiy ta'sirga ega ekanligidan dalolat beradi.

Aynan shu omillar uni Abbosiylardan mustaqil faoliyat olib borishiga turtki bo'ldi. 822-yilda xalifa nomini xutba namozidan chiqarib tashladi, lekin ko'p o'tmasdan vafot etdi. Xalifalik taxtiga Ma'munning kelishida Somoniylarning ham yordami katta edi. Narshaxiyning asarida yozilishicha, xalifa buyrug'i bilan Nuh ibn Asadni Samarqandga, Ahmad ibn Asadni Marvga amir qilib tayinladi. Bu (voqea) ikki yuz ikkinchi yilda (20 iyul 817—9 iyul 818) bo'lgan edi.<sup>2</sup>

Keyinroq, Ahmad ibn Asad Farg'onaga, Yahyo Shosh va Usturshonaga, Ilyos esa Hirotga noib etib tayinlanadi. O'z navbatida somoniylar tohiriylar orqali xalifalik xazinasiga soliq to'lab turishgan. Sug'd hududi 326 ming dirham soliq to'lashgan, Farg'ona – 280 ming dirham, Shosh – 607 ming, Usturshona – 50 ming soliq to'lagan. Bu iqtisodiy yuksalish harbiy qudratni ham belgilagan.

Movarounnahrda 600 ming suvoriy va piyoda qo'shin bo'lgan. Bu ma'lumotlarning o'zi ham Movarounnahrning xalifalikka nomigagina bo'ysunib, amalda mustaqil hudud sifatida ajralib chiqqanligini ko'rsatadi. IX asrning birinchi yarmida turk-o'g'uzlar Movarounnahr shimolidan hosildor voha hududlariga tez-tez hujum uyushtira boshladi. Ulardan himoyalaniish uchun mustahkam mudofaa istehkomlari Buxoroda (Kampir devor) va Samarqandda (Qiyomat) devorlar bunyod etiladi. Yahyo va Nuh ibn Asad 840-yilda Isfijobning turk hokimiga qarshi yurish qiladilar va g'alabaga erishadilar.<sup>3</sup>

Dastlab, Asadning katta o'g'li Nuh ukalarining mulklarini birlashtirib, xalifalikdan mustaqil davlat barpo etish siyosatini boshlaydi. Chunki, manbalarda Nuh nomidan tangalar zarb qilingani ma'lum. Uning vafotidan so'ng ukasi Ahmad Movarounnahrni birlashtirish ishlarini davom ettiradi, tohiriylar unga qarshilik ko'rsata olmaydilar. 865-yilda Ahmadning vafotidan keyin uning ishlariga Nasr boshchilik qiladi. Nasr davlatni Samarqanddan turib boshqargan.

Buxoroga noib etib Nasr o'zining ukasi Ismoilni tayinlaydi. Ammo, Ismoil akasiga itoatsizlik qilib Samarqandga o'lpon yubormay qo'yadi. 886-yilda bo'lgan dastlabki to'qnashuvda Ismoil mag'lubiyatga uchraydi va noiblikdan tushiriladi. Oradan ikki yil o'tib, 888-yilda bo'lib

<sup>1</sup> Eshov B. – O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Birinchi kitob – T:Yangi asr avlodi. 2019. 259-b.

<sup>2</sup> Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy – BUXORO TARIXI. – Fors tilidan A. Rasulev tarjimasini, Mas'ul muharrir A. O'rinboyev. [www.ziyo.uz.com](http://www.ziyo.uz.com) kutubxonasi 43-b.

<sup>3</sup> R.Shamsutdinov, R.Karimov. – Vatan tarixi. Birinchi kitob. – T:“Sharq”, 2010. 166-169 b.

o‘tgan ikkinchi jangda akasi Nasr qo‘shinlarini tor-mor etadi. 892-yilda akasining vafotidan so‘ng Ismoil Somoniy Movarounnahrning to‘laqonli hukmdoriga aylanadi. Poytaxt Samarqand shahridan Buxoroga ko‘chiriladi.<sup>4</sup>

Ismoil Somoniy – o‘z davrining yirik, aqlli va tadbirkor hukmdorlaridan biri edi. U milodiy 849-yilda Farg‘onada tavallud topgan. 14 yoshida otasi vafot etib, akasi Nasr qo‘lida qoladi. Ismoil Somoniyning siyosiy faoliyati 874-yildan boshlanib 907-yilgacha davom etadi.

Manbalar tili bilan aytganda Ismoil Somoniy “aqlli, adolatli, shafqatli, fikr va tadbir egasi” edi. Ismoil 893-yilda ko‘chmanchi turk qabilalari ustiga yurish qiladi. Bu yurishda u katta tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritadi. Taroz (hozirgi Jambul) shahrini egallab, turklarning xonini 10 ming askari bilan asirga oladi. Bu jangda shunchalik katta o‘lja qo‘lga kiritiladiki, har bir jangchiga 10 ming dirhamdan boylik ulashib beriladi. Ismoil Somoniy Tarozdagi xristian qasrini musulmon masjidiga aylantiradi. Albatta, bu o‘zgarishlar xalifa Mutazzidga (892-902) va Xuroson hukmdori Amr ibn Laysga (879-900) yoqmad. Xalifa Ismoilni Movarounnahr hukmdorligidan tushirib,



Amr ibn Laysni Xuroson va Movarounnahr ustidan hokimligi to‘g‘risida farmon chiqardi.

Xalifaning bundan ko‘zlagan maqsadi ikki o‘rtada urush chiqarish va amalda mustaqil bo‘lib olgan bu hududlarni yana o‘zining tasarrufiga qaytarish edi. Ammo, xalifaning bu rejaları amalga oshmay, 900-yilda bo‘lib o‘tgan jangda Ismoil Somoniy g‘alaba qozondi va Xuroson hududlarini ham o‘z davlati tarkibiga qo‘shib oldi. Ismoil Somoniy o‘z davrida shunday kuchli va

<sup>4</sup> Eshov B. – O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Birinchi kitob – T:Yangi asr avlodi. 2019. 267-b.

qudratli davlat barpo eta oldiki, endilikda mamlakatni himoya qilish uchun mudofaa devorlari kerak bo'lmay qoldi. O'zining qudratli qo'shinlariga ishongan Ismoil: <<Men – Buxoroning devoriman>> deb aytgan edi. Ismoil Somoniy mamlakat manfaatlarini yo'lida hizmat qiladigan amaldorlarni atrofiga yig'di va mamlakatni Arab xalifaligidan to'liq mustaqil tarzda idora qila boshladi. Mamlakat mudofaasini tashkil etishda yetakchi mavqeyni turk sarkardalari va g'ulomlari qo'llariga olishgan edi. Ammo, ularga doim ham ishonib bo'lmas, istalgan vaqtda hukmdorga qarshi bosh ko'tarishlari mumkin edi. Shuningdek, Sejiston, G'uzg'on, G'azna, Garjiston, Isfijob, Xorazm, Tojikistonning tog'li viloyatlari: Chag'oniyon va Rashtani somoniylar o'zlariga to'liq bo'ysundira olmadilar. Bu hokimliklar rasmiy hokimiyatni tan olsalar-da, amalda mustaqil siyosat yurgizardilar.

### **Somoniylar davlati.<sup>5</sup>**

Ismoil Somoniy o'z davlatida boshqaruv tizimini markazlashtirishga harakat qildi. Bu tizim asosini asosini hukmdor dargohi (saroyi) va devonlar (vazirliklar) majmui tashkil etgan. Oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Shu sababdan yozma manbalarda Amir Ismoil, Amir Ahmad kabi ta'kidlarni uchratamiz. Bundan tashqari Xoris amiri lavozimi ham bo'lib, u oliy hukmdorning barcha hukm va topshiriqlarining ijrosini nazorat qilgan. Dargoh hamda boshqa muhim idoralarning xavfsizligi Bosh Hojib va uning xodimlari tomonidan ta'minlangan.

Dargohning xo'jalik yumushlari faoliyati bilan Vakil shug'ullangan. Bundan tashqari, dargohda dasturxonchi, eshik-og'asi, sharbatdor kabi xizmatchilar bo'lgan. Devon boshqaruvi 10 ta yo'nalishdan iborat bo'lib, poytaxt Buxoroda alohida binolarda joylashgan. Viloyatlar hokimlari hokim, shahar hokimi esa rais deb atalgan. Davlat ishlariga qabul qilishda ma'lum bir talablar o'lehoivi bo'lgan: davlat tilini mukammal bilish, zamona huquq me'yorlaridan to'liq xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabarlik, hisob-kitob ishlaridan bilimdonlik kabilar.

Harbiy lashkar ikki toifaga bo'lingan: doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi saralangan (gvardiya) va zarur hollarda yig'iladigan ko'ngillilar. Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, somoniylar davrida davlat boshqaruvi va harbiy siyosatning o'z davri uchun murakkab va salohiyatli tizimi tashkil topgan. Boshqaruv tizimiga alohida e'tibor berilganligini shundan bilsam ham bo'ladiki, davlatning umumiy yillik daromadi 45 million dirhamni tashkil qilgani holda, shundan 20 million dirhami davlat boshqaruvi va lashkarlarga sarflangan. Somoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr, Xorazm, Xurosonda dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, tog'-kon sohalari gullab-yashnadi, bunga asosiy sabab esa markazlashgan davlatning tashkil topganligida va mamlakat aholisining xavfsizligi ta'minlanishida edi.<sup>6</sup>

### **XULOSA**

Arab xalifaligining zaiflashuvi Movarounnahrning mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishiga imkoniyat yaratdi. Somoniylar sulolasi vakillari tomonidan boshqarilayotgan viloyatlar asta-sekinlik bilan yagona markazga birlashdi. Albatta, bu jarayon uzoq davom etdi, Somoniylar birlashuv jarayonida ichki va tashqi kuchlarning qarshiligiga duch keldi. Somoniylar davlatini to'liq mustaqil va yagona markazlashgan davlat sifatida tarix sahnasiga olib chiqa olgan shaxs – Ismoil Somoniy hisoblanadi. Uning qat'iyatli siyosati natijasida markazlashgan davlat asoslari

<sup>5</sup> [www.Shosh.uz](http://www.Shosh.uz) saytidan olindi.

<sup>6</sup> R.Shamsutdinov, R.Karimov. – Vatan tarixi. Birinchi kitob. – T:“Sharq”, 2010. 174-176 b.

yaratildi. Somoniylar davlati O‘zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega va bu davrning chuqurroq o‘rganilishi biz uchun noma’lum bo‘lgan tarixiy ma’lumotlarni yuzaga chiqaradi.

#### **REFERENCES**

1. Eshov B. – O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Birinchi kitob – T:Yangi asr avlodi. 2019.
2. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy – BUXORO TARIXI. – Fors tilidan A. Rasulev tarjimasi, Mas’ul muharrir A. O‘rinboyev. [www.ziyo.uz.com](http://www.ziyo.uz.com) kutubxonasi.
3. R.Shamsutdinov, R.Karimov. – Vatan tarixi. Birinchi kitob. – T:“Sharq”, 2010.
4. [www.Shosh.uz](http://www.Shosh.uz) sayti.